

Hikoyalarda vatan konsepsiyasi (Mustaqillik davri yosh nosirlari ijodidan: Javlon Jovliyev hikoyalari misolida)

Ruxsora Tulabayeva¹

Abstrakt

Mustaqillik davri ijodkorlari hur fikr, keng dunyoqarash bilan ijod qilmoqdaki, ularda milliy-madaniy, umuminsoniy tushunchalar o'z ifodasini topib bormoqda.

Mustaqillik davrida yosh ijodkorlar safida Javlon Jovliyevni e'tirof etib o'tish o'rinlidir. Zero, uning hikoyalari mustaqillik davri hikoyachiligida o'ziga xos o'rin va mavqega ega bo'ldi. Javlon Jovliyev, o'z tengdoshlari orasida birinchilardan bo'lib, roman janriga qo'l urgan adib hisoblandi. Uning "Qo'rqma" romani katta audotiriyaga ega bo'lgan yoshlar romanlaridan biri bo'ldi. Javlon Jovliyev nafaqat roman, balki hikoyachilikda ham bir qadar muvaffaqiyat qozonib, ushbu janrning ham imkoniyatlaridan keng foydalandi. Uning "Stalinga maktublar", "Mustabidning hasharotlari", "Ayol" kabi hikoyalari vaqtli matbuot sahifalarida e'lon qilingan, 2022 yilda "Onam va koinot" nomli to'plami nashr etilib, unda ko'plab hikoyalar jamlandi. Javlon Jovliyev hikoyalarida qahramonlar ruhiyati, ruhiy tavsir, obrazlar ichki dunyosi o'zining teran ifodasini topgan. Ayniqsa "Elbek", "Ko'k, oq va ola kabutarlar", "Ayol", "Onam va koinot" hikoyalarida ayol ruhiyati, o'zbek onasining ruhiy qiyofasi nihoyatda ta'sirli berilgan. Ushbu hikoyalarning har birida o'zgacha syujet tanlangan bo'lsa-da, ammo qalamga olingan ruhiyat tasviri, ayol ruhiyatining fojeyaviy qiyofasi sabab mushtaraklik kasb etadi.

Kalit so'zlar: yozuvchi, adib, hikoya, mustaqillik davri hikoyachiligi, mavzu, g'oya, Vatan, ona yurt, el, qahramonlar ruhiyati, konsepsiya, tizim, ifoda, millat, millatdosh, erk, Turkiston.

Kirish

Badiiy adabiyotda Vatan mavzusi hamisha dolzarb, qalbga yaqin, zamon va makon tanlamaydigan mavzulardan biri bo'lib, she'riyatda bu mavzuga keng murojaat etiladi. Biroq nasriy asarlarda

¹ Tulabayeva Ruxsora Sayfullayevna – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-mail: rtulaboyeva@navoiy-uni-uz; rtolaboy@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-7013-400X

Iqtibos uchun: Tulabayeva, R. 2024. "Yozuvchi biografiyasi va bola ruhiyati o'ziga xosligi". *O'zbekiston: til va madaniyat* 2(2): 99-116.

ushbu azaliy mavzuga nazmga nisbatan bir qadar kam murojaat etilgani adabiyotshunoslikda ma'lum.

Javlon Jovliyev hikoyalarida Vatan mavzusi konsepsiya darajasiga ko'tarilgan bo'lib, unda Ona yurt, tuproq, xalq tushunchalari yaxlitlashib, butun konsepsiyani tashkil qiladi.

"Konsepsiya (lot. conceptio — majmua, tizim) — 1) biror sohaga oid qarashlar, tamoyillar tizimi, fakt va hodisalarni tushunish, anglash va izohlashning muayyan usuli, asosiy nuqtayi nazar; 2) adabiyotda — biror asarning asosiy g'oyasi" [Qomus.Info.Onlayn ensiklopediya.2023.].

Konsepsiya badiiy asar mohiyatini, uning bosh mavzusini anglatish bilan birga ijodkorning ichki olamini ham ifoda etadi. Shu ma'noda asar konsepsiyasi ma'lum g'oyani ilgari surish bilan birga muallifning badiiy-estetik olamini ham aks ettiradi. Badiiy asar konsepsiyasi ba'zan tarixiy yoki ijtimoiy shart-sharoitdan, ba'zan esa muallifning ma'naviy-ruhiy ahvolidan kelib chiqib ta'kidlanadi yoki akslanadi. "Inson va borliq mohiyatiga ko'ra, Konsepsiya bir butunlikni tashqil etadi. Masalani muayyan ijodkorning o'z Konsepsiyasi yoki alohida olingan haqiqiy san'at asarining Konsepsiyasi tarzida qo'yish ham mumkin. Boshqa jihatdan, badiiy asar Konsepsiyasi unda tasvirlangan badiiy-estetik, obrazli dunyo orqali hayotni anglash mexanizmi — usuli bo'lib ham maydonga chiqadi. Umuman, Konsepsiya badiiy asarning san'at, adabiyot va madaniyat tarixidagi o'rnini hamda o'quvchilar ommasiga ta'sir etish darajasini belgilaydi." [Qomus.Info.Onlayn ensiklopediya.2023.].

Shunga ko'ra asar konsepsiyasini ikki xil 1. Ijodkor konsepsiyasi. 2. San'at asari konsepsiyasi tarzida o'rganishimiz, bizningcha, o'rinli. Javlon Jovliyevning qator hikoyalarida ijodkor kontsepsiyasi yaqqolroq ko'rinadi. Chunki, bevosita yozuvchining o'zi Ona Vatan, Turon zamin, Turkiston, ona tuproq tushunchalarini eng muhim, hatto, hayot uchun zaruriy hodisalar deb biladi. Bu hodisa adibning "Qo'rqma" romanida ramzlarga o'ralgan, ishoralarga to'la shaklda berilgan bo'lsa, hikoyalarida real tasvirlar, hayotiy hodisalar, ibratli voqealar tarzida tasvirlanadi. Bu o'rinda adibning o'zini tom ma'noda vatanparvar deyish, fikrimizcha, to'g'ridir. Zero Vatan haqida laganbardorlik va maddohlikdan holi, chinakam san'at asari yaratish uchun ijodkorning qalbida haqiqatdan ham vatanga bo'lgan kuchli muhabbat yashamog'i darkor.

Asosiy qism

Javlon Jovliyevning Vatan mavzusiga bag'ishlangan

hikoyalarining deyarli barchasida ko'tarinki ruh, xursandchilik kayfiyati yoki xushchahchaqlik sezilmaydi. Balki, buning aksi o'laroq, qayg'uli, tushkun kayfiyat uyg'otuvchi ifodalar, tasvirlar ustunlik qiladiki, agar adibning Vatan mavzusi qalamga olingan barcha hikoyalarini jamlasak, og'ir, g'amgin bir kuy ohangi eshutilgandek bo'ladi. Zero, yaqin tarixga nazar tashlar ekanmiz, haqiqatdan ham kishini sevintiradigan kunlarni emas, o'ta shafqatsiz fojealar, qatag'on-repressiyalar, imonidan, o'zligidan, tarixidan ajratilib, manqurtga aylantirilgan xalq, iztirob va qo'rquvga to'la o'tgan kunlarni ko'z o'ngimizga keltirishimiz sir emas.

Adibning "Buxoro, Buxoro, Buxoro..." hikoyasini Vatan sog'inchi, Vatan iztirobini kuylovchi original asar, desak hech bir mubolag'a bo'lmaydi.

XX asar boshlaridagi qizil siyosat son-sanoqsiz vatandoshlarning boshiga og'ir kulfatlar solgani, millat gullarini otib, o'ldirib, yana qolganlarini muddatsiz qamoq va sovuq o'lkalarga hukm qilib yuborgani, obro'-e'tiborli oilalarni parokanda qilib, uzoq o'lkalarga surgun qilib yuborganlari tarix haqiqatidir. "Buxoro, Buxoro, Buxoro..." hikoyasida qalamga olingan bir oila fojeasi misolidagi achchiq haqiqat aslida butun millat boshiga ataylab tushirilgan fojea edi. Buxoroning katta izzat-e'tiborga ega bo'lgan shayxlar xonadoning farzandi ham bu shafqatsiz siyosat hujumidan qochib oilasi bilan Afg'on o'lkasiga keladilar. Taqdir taqozosi bilan begona o'lkada qo'nim topgan oila bir tomondan Vatan va yaqinlar sog'inchi bilan o'rtansa, ikkinchi tomondan yo'qchilik va ochlik azobidan tang holatga keladilar. Rovi Buxoro sog'inchini yaqqolroq ifodalash uchun ona obraziga murojaat qiladi. Onaning tinmay Vatan nomini tilga olishi, uning ko'zlaridan ko'zyoshga aylanib to'kilayotgan sog'inchlar, iztiroblar, bularning hammasi farzandlariga ta'sir etmasligi, tabiiyki, mumkin emas:

"Qishlar o'taverdi, bahorlar o'taverdi, ammo onamning ko'zyoshlari ado bo'lmadi. Hovlimizdagi o'rik gulladi. Onam buni ko'rib yana yig'ladi.

– Ona, nega yig'laysiz?

– Buxoroni sog'indim, – dedi Onam.

Aytishlaricha, bobomiz– onamning otalari Buxorodagi eng boy odamlardan bo'lgan. Onam o'sha farovonlikda o'tgan kunlarni juda qo'msab eslar, eslab yana...

– Uyimga ketgim kelyapti! Uyimga!..

– Buxoro qanday joy o'zi? Nega buncha yig'layverasiz? Ayting, ona... Buxoro qanday joy o'zi?

– Yig‘lamaydigan joy, bolam, yig‘lamaydigan...

Har kuni shu ahvol edi. Biron kun yo‘q ediki, onam Buxoro uchun, bevaqt o‘lgan akam uchun yig‘lamagan bo‘lsa! Yig‘laganda ham ezilib, ko‘zlari yoshga qorilib, ho‘ngrab-ho‘ngrab yig‘lardi. Buxorodagi qarindoshlari, katta bog‘ hovlilarini eslardi... [Jovliyev]. “Onam va koinot. 2022, 146].

Shu o‘rinda muallifning o‘zi ham oila taqdiri, musofirlik, qizil imperiyaning qonli siyosati haqida bir jumla kiritma keltirib o‘tadi. “...Chunki men bevatan, quloq qilingan oilaning farzandi edim (O‘tgan asrning 1929-1933-yillarida mustabid sho‘ro tuzumi yer egalari, boy, o‘rta hol dehqon va chorvadorlarni “quloq – mushtumzo‘r” nomi ostidagi sinf sifatida tugatish siyosatini olib borgan). [Jovliyev]. “Onam va koinot. 2022, 146].

Hikoyada ona obrazi beixtiyor Vatan obrazi bilan yaxlitlik-hamohanglik kasb etib boradi. U farzandlari onggiga Vatan – Buxoroni shu qadar singdirib yuboradiki, bolalari Buxoro deganda samoviy o‘lka, jannatdagi bir yer kabi tasavvurda bo‘ladilar. Zero har qanday tarbiya avvvlo onadan boshlanishi barchamizga ma‘lum:

– Onam Buxoroga ketgan bo‘lsa, qachon keladi, aka?

–Buxoroga borgan odam kelmaydi. U osmonlarda, bulutlar orasida, uylari oltindan, yegani asal, holva, shashlik!

–Nimaga onam bilan akam bizni tashlab ketdi? Buxoroda bizga joy yo‘qmi? U yerda nima bor o‘zi?

–Vatan bor.

–Kim?

–Vatan.

–Kim u?

–Men uni bilmayman. Otam biladi, onam, akam, biladi. Uni taniydi. U Buxoroda yashasa kerak...

–Bo‘lmasa, biz ham ketaylik Buxoroga... Ketaylik!

–Hozir ketolmaymiz.

–Nimaga?

–Otam qo‘ymaydi. Lekin, albatta, bir kun ketamiz.

–Yo‘q! Bugun ketamiz, bugun, aka...

Shundan so‘ng Oysha har kuni “Buxoroga ketamiz”, deb turib oladigan bo‘ldi [Jovliyev 2022, 146].

Hikoya nafaqat Vatan sog‘inchi, yurt iztirobi, balki inson bolasining nechog‘li chidamli, bardoshli bo‘la olishi, yaratgan umr bergan bo‘lsa, misli ko‘rilmagan azob-uqubatlarga ham dosh bera olishi haqidagi zalvorli haqiqatni ham ifoda etadi. Hikoya qahramoni yetti-sakkiz yoshli bolakay holidan boshlab og‘ir sharoitli paxta

zavodiga ishga kiradi. Va butun asar davomida qiyinchilik, sinovlar ostida harakatlanadi. Bu orada qahramon makondan makonga, zamondan zamonga ham ko'chib o'tadi. Makonlarning almashish bora-bora uni haqiqiy Buxoro sari olib borsa, zamonlar o'tishi esa, qahramonning to'qson yoshdan oshgan mo'ysafid ekanini tasvirlydi. Nihoyat radan 90 yil o'tib asar qahramoni Buxoroga keladi. Butun asarning bosh tasviri bo'lgan, butun asar davomida hayoliy, orzular o'lkasi bo'lib tasvirlangan Buxoro qahramon nigohi bilan o'zining chinakam, asl qiyofasini namoyon etadi.

Uzoq yillar davomida chekkan azob-uqubatlariga qaramay asar qahramoni katta muvaffaqiyatga erishadi. U AQShning Florida shtatidagi hashamatli uyidan Buxoroga kelgach, onasi tinimsiz aytib o'tgan Buxoroning qiyofasini his qiladi. Hikoya syujetiga ko'ra Afg'onistonda zavodga ishga kirandan boshlab, chet ellarga chiqib ketishi va Buxoroga yetib kelgunga qadar bo'lgan oraliqdagi voqealar hayot sinovlariga dosh berayotgan inson obrazini gavdalantiradi. Bu o'rinlar garchi asl maqsaddan chekingandek, Buxoro-Vatan obrazi chetda qolib ketgandek taassurot qoldirsa-da, ammo asar kompozitsiyasiga ko'ra Buxorogacha yetib kelish yo'li –mashaqqat yo'li ekani bunday syujet va tasvirni, fikrimizcha, oqlaydi: "Ey Buxoro! Bundan 90 yil avval quvg'in qilingan o'g'ling keldi... Millionlab surgun qilingan farzandlaringdan bir vakil bo'lib keldi... Ochlikdan, quvg'inlikdan, tutqunlikdan, xorlikdan, zo'rliklardan o'lib ketmagan, bariga chidagan bolang keldi. U tirik!" [Jovliyev 2022, 146].

Asar boshidagi Buxoro-Vatan bilan asar so'nggidagi Buxoro-Vatan o'xshash mohiyat kasb etadi. Asar boshida yetib bo'lmas orzulardagi maskan asar oxirida qahramonning onasi, akasi, otasi va ko'plab qadrdonlari qiyofasini ko'rsatish orqali o'zining naqadar qadr-qimmatli ekanini isbolaydi.

"... Mana, necha yillar o'tib, nihoyat, qartayib-churtaygan paytimda Buxoroga – ota vatanimga keldim! 90 yil o'tib...

Ey Buxoro!!! Mana, men! Mana, men! Sening o'g'ling, farzanding, 90 yil o'tib bag'ringga keldi! Nega shu paytgacha qaytmadim? Oliy orzuyimni, onamning, otamning armonini nega shu paytgacha bajarmadim? Nimaga? Xayolimdagi, orzuyimdagi, o'sha bulutlar orasidagi go'zal, mo'jizali Buxoroni yo'qotib qo'yishdan qo'rqdimmi?!..

Bilasizmi, kelish tugul, men xaritadan O'zbekistonga qarashga ham qo'rqardim! O'ylarim sarob bo'lib chiqishidan qo'rqardim, Buxoro yo'q bo'lib chiqishidan qo'rqardim. Eh... Bu yerga kelib akamni, onamni topolmaslikdan qo'rqardim! Axir, ular men uchun

shu mahalgacha Buxoroda edilar, Buxoroda...

Ona, men bekorga shuncha vaqt kutgan ekanman. Ertaroq bu yerga kelsam, bu tuproqni quchsam bo'larkan... Sizning Buxoroga ketganingizni bilardim-u, u yerdan topolmasam nima qilaman deb o'ylardim. U yerga borsam, bolalikdagi beg'ubor tasavvurlarim to'zg'ib ketishidan, shubhalar orasida qolib ketishidan qo'rqardim. Bekor qilgan ekanman! Nega buncha kutdim? [Jovliyev. 2022, 146].

Buxoroga kelish asnosida qahramon ruhiyatida iztirob va quvonch, alam va sevinch aralash og'ir tuyg'ular jo'sh urgani tasvirlangan.

"Buxoroda ekan hamma-hammasi... Barchasi menga, bolalarim, nevaralarimga o'xsharkan – yuz-ko'zi, qoshu ko'zi... Bolalarim...

* * *

Sizni topdim, ona! Bozorda ko'rdim! Do'ppi sotayotgan ekansiz! O'xshatdimmi dedim, yo'q, quyib quygan o'zingiz... Keyin qishloqlarda ham ko'rdim! Buxoroda bir emas, ko'p ekansiz, Onajon! Ha, aniq siz!

Akamni ham ko'rdim! Ayniqsa, novvoy yigit akamga Hasan Husaniga o'xshaganday o'xshaydi. Qoyil!

Lekin aldagan ekansiz, ona, aldagan ekansiz! Buxoro qanday joy deganimda: «Yig'lamaydigan joy» degandingiz... Men kelganimdan beri yig'layapman... Sizni ko'rib, akamni ko'rib, Buxoroni ko'rib...

Mana, men keldim, Buxoro!!! 90 yil o'tib..." [Jovliyev. 2022, 146].

Vatandan judolik, ona yurt sog'inchi mavzusi azal-azaldan adabiyotda mavjud bo'lib, ko'plab ijodkorlarning bu mavzudagi asarlari bizga tanish. Boburning

...Kobulda iqomat etdi Bobur dersiz,

Andoq demangizlarkim, muqim ermasmen. (Zahiriddin Muhammad Bobur)

Yoki:

O'z yurtni yurtni qo'yub hinb sori yuzlandim,
Yo rab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi. (Zahiriddin Muhammad Bobur) kabi misralari, yoki Furqatning

Hijron o'qidnn jismi ko'p yora ekan mendek,
Kuygan jpgari bagri sadpora ekan mendek. (Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat)

Yoki Abdulla Oripovning

Talpingan diyorim, u-O'zbekiston!
Sehrini aytishga bormi hech imkon!
Yo'q,o'zga yurtlarda berolmasman jon,
Meni olib keting o'z diyorimga! (Abdulla Oripov)

kabi misralari Vatan hijroni qalbidan chuqur joy olgan insonlar qiyofasini gavdalantiradi. Javlon Jovliyev Vatan hijroni, iztirobini faqatgina shohlar, taniqli shaxslar, ijodkor-ziyolilar uchun emas, balki, har bir inson uchun, murg'ak boladar tortib, mushfiq onalargacha cheksiz musibat ekanini ta'sirli yoritgan. Bizningcha, hikoyada qalamga Buxoro-Vatan obrazi estetik ideal darajasiga ko'tarila olgan.

Yozuvchining "Elbek", "Ko'k, oq va ola kabutarlar" nomli hikoyalari yaqin o'tmishdagi paxta qulligi davrida yashagan millat iztirob, fojealarini aks ettiradi. Bu hikoyalar sovet markaziga paxta yetishtirib beraman, deb hamma narsasidan ayrilgan xalq, zabonsiz millatning kunsiz kunlari haqida hikoya qiladi. Paxta fojealari o'zbek adabiyotida ko'plab ijodkorlar tomonidan qalamga olingan. Tog'ay Murod "Otamdan qolgan dalalar" romanida paxtaning oldida inson joni, qadri, qimmatini zarracha ham ahamiyatga ega emasligi ta'sirli ifodalangan. Shuningdek, Erkin Vohidov, Shavkat Rahmon, Muhammad Yusuf she'rlarida ham ayni fojeaning ta'sirli ifodasini ko'ramiz.

Paxta siyosati qizil imperiyaning yana bir qonli qilichi bo'lgani uzoq vaqt aytishga til o'jiz bo'lgan og'ir mavzu edi. Zero paxta degan narsa odamlar ongiga shu qadar singdirib yuborilgan ediki, ular hayot paxtadan iborat ekan, degan tasavvurda yashagan edilar...

Javlon Jovliyev "Elbek", "Ko'k, oq va ola kabutarlar" hikoyalari yozar ekan, xalqimizning sho'r peshonasi, paxta dalalarida tugab bitgan ayol-qizlarning go'zalligi-yu, yoshligi, bolalarning paxtaga almashilgan ilmi-yu, yuksalishlarini aks ettirgan. "Elbek" hikoyasida paxta frontida farzandidan ayrilgan onaning cheksiz iztirobi, umrbod bitmaydigan yarasi hikoyada Elbekning onasi obrazida gavdalantirilgan: " – Hoy Elbek ... Ko'ksimda "Qahramon ona" ordeni bor, menam qahramon bo'ldimmi, bolam... Paxtani oltin deb, minbarni zamon deb seni qaqshatdimmi bolam... ko'ksimdagi bu ordenni to'yingda eshakka taqa qilay, eshakka taqa bo'lmasa, lo'liga sovg'a qilay..." [Jovliyev. 2022, 146].

Yoshgina farzandi paxta dalasida o'lgan ona bu iztirobni ko'tarolmaydi, telbanamo bo'lib qoladi. Yomg'irli kunda paxta dalasidan o'g'li Elbek chiqib kelayotgandek ko'rinadi onaning ko'ziga. Ammo qarshisidan katta o'g'li Tesha chiqib, onaga taskin-

tanbeh beradi. Qizig'i shundagi Teshaning nutqidan aytilgan iboralar hukmron tuzum yoki mahalliy boshqaruvchilar tomonidan doimiy aytib kelingan sovuq murojaatlarni eslatadi. Adib ayni nutq orqali nafaqat mahalliy boshliqlar, hatto, xalqning o'zi ham boshidagi fojeaga ko'nikib qolganini ko'rsatadi:

"...Nima, faqat bizning inimizni paxta yutganmi... Qurbonlarsiz shuncha planni jumhuriyat qaday bajaradi.... Shikoyat qil, deysiz! Kimga? Nimaga? Nima foyda? Inim tirilib qaytib kelarmidi?.. Moy beryapti, choy breyapti, pul beryapti... yana nima kerak, ena?.. Yoz deysiz, o'n bitta bolangdan bittasi o'libdi, shunga ham ota go'ri qozixonami, demaydimi? Uyat bo'ladi, ena! Ming qilsa ham ordenli onasiz..." [Jovliyev. 2022, 146].

Qarangki, choy va moy, bir tiyinga gugurt berib, xalqn aldab, evaziga uning bor-yo'g'ini, vujudini ham, ruhini ham sug'urib olganlarini ko'pchilik hatto hozirgi kunimizgacha ham anglamaydi....

Huddi shunga o'xshash hodisa Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" romanida ham ifoda etilgan. Romanda 9-10 yoshli Ziyod paxta dalasi ustidan butifos sepib o'tadigan samolyotga bayroq ko'rsatib turish uchun qo'yiladi. Bola dalada uxlab qoladi va butifosdan zaharlanib vafot etadi. Ziyodning onasi dod-faryod ko'taradi, shu payt rais va boshqa mahalliy boshliqlar onani urushib beradilar, "Ulug' Sovet paxtasi" uchun bolasi nobud bo'lganidan faxrlanishi kerakligini aytishadi. Afsuski, bu gaplar naqadar ayanchli va kulgili bo'lmasin, o'sha davr uchun ustuvor edi. Ular hisobga olmas edildarki, onalar esa qaysi tuzum, qaysi tarixiy davr, qaysi hukmdor davrida yashamasin, u hech qachon bolasining o'limiga rozi bo'lmaydi. Sobiq sovet davridagi sun'iy qahramonlar aslida ich-ichidan qahramon bo'lishni istamasa ham qo'rquv tufayli bu qismatga ko'nikkan edilar. Garchi paxta qahramoni bo'lish san'at asarlariga solib kuylangan bo'lsa ham tuzum qulagach, ularni zarracha ham ahamiyati qolmadi. Soxta "qahramonlar", "jonbozlar" bugungi kunga kelib mohiyatini yo'qotdilar.

Paxta fojeasining yana bir ifodasi sifatida yozuvchining "Ko'k, oq va ola kabutarlar" hikoyasini tilga olish o'rinli. Hikoyada Tesha momo obrazi gavdalandirilar ekan, uning esini taniganidan buyon to umrining oxirigacha tom ma'noda ro'shnolik ko'rmay o'tgan umri tasvirlanganini ko'rish mumkin. Momo yoshligidan paxta dalalari oralab hayotini o'tkazgagi hikoya davomida oydinlashib boradi:

"Ha, paxta uning joni edi, jonini oldi, paxta qoni edi, qonini ichdi. Bir paytlar brigadirning otini ko'rish bilan ayollar joni chiqar, bolali ham, bolasiz ham, tuqqani ham, tug'ayotgani ham shu

paxtaorda bo'lishlikni shart deb bilardi. U paxta orasidagi katta kesaklarga urilib ketar ekan, shunchalik paxtadan nafratlanishini o'ylab qo'rqib ketdi. Axir, shu egatlar ichida ikkita bolasi tushib qoldi...

O'shanda ichidagi gumonasi bilan birga, ichak-chavag'i qo'shilib tushub qolganday bo'lgandi. O'lib qolsam kerak deb o'ylagandi. Ichaklari joyida ekan, joni, qalbi, ishonchi tushib qolibdi. Bag'rida buning o'rnida butun vujudi bilan paxtaga bo'lgan nafrat shakllandi. U nafrat tug'di. Oppoq nafrat" [Jovliyev. 2022, 146].

Biroq shunday bo'lsa ham sobiq tuzum paxta siyosatini shu darajada qattiq olib bordiki, undan hech kim omon qolmadi. Hali tug'ilmagan va yangi yangi tug'ilgan bolalardan tortib, keksalargacha paxta uchun safarbar etilar edi. Zero, O'rta Osiyo xalqlarining shonli o'tmishi, buyuk alloma-yu, sarkardalari bo'lgani, bu avlod hali ham shunday buyuklarni yetishtirib berishi mumkinligidan ko'ra paxta yetishtirib beruvchi, tayyor qo'l mehnati, tekin ishchi ekani, albatta, zarurroq edi-da.

"Ikkinchisi ham paxta ichida erta nobud bo'ldi. "Paxtaga o'g'it bo'ldi, bolam bechora", deb yurdi. Eee..." [Jovliyev. 2022, 146].

"Shu paxtada ikki bolasini ko'mdi va bu dala endi o'zini ko'maypti" [Jovliyev. 2022, 146].

Ozgina toifadagi insonlar balki e'tiroz bildirganday, kurashganday bo'lgandir, biroq shiddat bilan bosib kelayotgan oqimga qanday ham qarshi turish mumkin?...

"Nahot, odamlardan ham kuchli, qadrli bo'lsa. Nahot, shu dala ichida u mangu qolib ketsa! Yo'q! Bu yerda itdek, chala tug'ilgan bolalari kabi o'lib ketishni istamaydi. Aslo!" [Jovliyev. 2022, 146].

Paxta siyosatining oddiy bir o'yin ekanini butun-butun xalqlar anglamay, bilmay, tushunmay, unga o'zini fido qilib yuborgani yaqin tarixga bag'ishlangan asarlardan ma'lum. Paxta bahona bo'lib, ko'plab ziyolilarning yana qamoq va surgunlarga jo'natib yuborilgani haqida ham son-sanoqsiz hujjatlar bor. O'rmonga o't ketsa xo'l-u quruq baravar yonadi, deganlaridek, nafaqat millatning ziyoli, obro'li kishilari, balki savodsiz, hech narsadan xabari yo'q, qora xalq vakillarining ham qanchadan-qanchasi qamoq azob-uqubatiga giriftor qilindi. Ularning ko'pchiligi hatto nega qamalganini anglab yetmagan edilar... "Otamdan qolgan dalalar" asariga yana murojaat qilar ekanmiz, Dehqonqulning qamalishini xuddi shu fikrlarning isboti o'laroq keltirishni o'rinli bildik. Javlon Jovlievning "Ko'k, oq va ola kabutarlar" hikoyasida momo otasining ana shunday arzimasi hatto kulgili sabab bilan qamalib ketganini alam bilan eslaydi:

“Bechora otasi ham shu paxta tufayli qamalib keldi. U paytlar yosh edi. Onasining aytishicha, bitta eshak uch tup paxtani yegani uchun otasini qamashgan ekan. Shundan keyin eshakka minmaydigan, bog‘lanib turgan eshagiga kesak otib qochadigan bo‘ldi. Otasi qamoqdan g‘alati, sochlariga oq orab, tishlari tushib qaytib keldi. Otasi bir kuni qizining eshakka minmaslik sababini eshitib, jilmayib qo‘ydi va: “Qizim, unday qilma. Menim qamalishimda eshaklarning aybi yo‘q, mashina minib yurganlarning aybi bor”, dedi. Shunday keyin eshaklarni kaltaklamaydigan bo‘ldi [Jovliyev. 2022, 146].

Vatan, millat boshiga tushgan og‘ir musibatlar biri bo‘lmish paxta siyosati xalqni yana bir qullikka o‘rgatish, qullikka rozi qildirish uchun olib borilgan shaqfatsiz usul edi:

“Bu paxta kimlarini yutib yubormadi. Sal bo‘sh kelsam meni ham yutib yuboradi”, derdi o‘ziga o‘zi... [Jovliyev. 2022, 146].

Javlon Jovliev hikoyalarida Vatan, millat boshiga tushgan fojealar, iztiroblar obrazli tasvirlar bilan ifodalangan bo‘lib, ularda xalq, millat qiyofasi o‘z aksini topgan.

Muallifning “Jilovdoshim” hikoyasi to‘plamdagi Vatan, millat mavzusiga bag‘ishlangan boshqa hikoyalardan farqli ravishda xalqimizning tarix qatlamlariga murojaat qiladi. Hikoyada qadim turkiy qabilalar davridan tortib, mutaqillik yillaridagi mamlakat qiyofasi ham o‘zining ifodasini topgan. Asarda bosh obrazlardan biri sifatida qudratli Turkiston gavdalanitiriladi. Turon zaminining bir paytlar ulug‘ davlat, katta kuchga ega millat bo‘lganini tarixiy dalillar keltirib, tasvir etadi. Jilovdosh hikoyada millatdosh, vatandosh sifatida butun hikoya davomida roviyga hamrohlik qiladi. Bu uslub orqali muallif barcha zamonlarda o‘zining millatdoshiga, vatandoshiga murojaat qila olish imkoniyatini yaratadi.

Hikoya “ - Ortingda yonayotgan quyoshmi, bolam?-

Yo‘q, ona, bu o‘sha qadim Turkiston” so‘zlari bilan boshlanadi va bu so‘zlar asarning markazi, bosh mavzusi Turkiston, Turon zamin ekaniga ishora bo‘lib xizmat qiladi.

“Raddi balo bo‘lsin Turkistonga deb har tong minglab oppoq kabutarlarni moviy osmon bag‘riga uchiraman... Ular qanot qoqish oldidan qo‘llarimda pitirlab, ko‘kka boqqancha erk va shon, hayrat va samo istab to‘lg‘onishadi, yuraklari tez-tez, gupillab urib barmoqlarimni o‘zidan itarishadi, mendan ozodlik istashadi. Oh, oppoq qushlarim quvlashmachoq o‘ynashganday tezda moviy osmon bag‘riga singib ketadi. Shunda bir dam ko‘kni oppoq kabutarlar buluti to‘sib qo‘yadi.

Ilohim, ular Raddi balo bo'lsin Turkistonimga!" [Jovliyev. 2022, 146].

Hikoyaning boshlanishida keltirilgan tasvir beixtiyor Turon zaminining hur, ozod bo'lishi, mustabidning zulmidan, kishanlaridan qutulib, nihoyat ozod bo'lib uchgan qushlardek erkin nafas olishini eslatadi.

Hikoya zamon va makon xronotopi nuqtai nazaridan yaxlit tizimni tashkil qila oladi. Davrlar va hududlar jihatidan olib qaralsa, Turon zamini tarixda bir necha bor hududlar o'zgargani, bu o'zgarish esa uzoq yillar davomida yuz bergani ma'lum. Shu ma'noda asarda zamon xronotopi aniq vaqtni aytib emas, balki tarixda yuz bergan voqealar orqali namoyon bo'ladi.

"Kutilmaganda nog'oralar chalindi. Qiyqiriqlar, vahimalar ko'tarildi... Atrofni bolalar yig'isi va onalar faryodi tutib ketdi. Boshimizga do'l kabi olov, adoqsiz o'qlar yog'ildi... "Dushman, dushman!", deb hamma oh urib, najot qidira boshladi, qo'llarga qilich olindi. Kimdir bola-baqrasiga, allakim mol-mulkiga yopishdi.

Men esa, ko'ksimga Turkistonni yashirdim, jilovdoshim!" [Jovliyev. 2022, 146].

Turon zamini tarixda ko'p bosqinlarga uchragan. Chingizxon bosqinidan tortib, xonzoda, amirzodalarning bir-biri bilan qilgan janglari-yu, rus istilosidan faqat va faqat xalq, millat, elat jabr ko'rdi. Bu urushlardan millat ham moddiy ham ma'naviy talafot ko'rar ekan, bunday talafotlarni bartaraf etishga yuz yil ham ming yil ham yetmadi.

"Qora muzga aylandi oltin o'lkam!Hamma narsa yondi, qushlar ham, bulutlar ham...

Ko'ksimdagi yalovim bilan men zo'rg'a omon qoldim, jilovdoshim! Qismatim va qisamatdoshlarim qatliom etildi... Uni asrash, ha, faqat Uni asrash uchun omon qoldim.

Kitoblar yonib ketdi, tarix kulga, so'ng muzga aylandi. O'n ming yillik yillik kitoblarim bor edi, saqlab qololmadim..." [Jovliyev. 2022, 146].

Turkiylar tarixidagi ko'plab qadimiy obidalar, madaniy meroslar urushlar va bosqinlar tufayli qisman yo'qolgan yoki yoqib yuborilgan. Bizga ma'lum bo'lgan eng qadimiy manbalardan Avestoning fors shohi Doro tomonidan yoqib yuborilishi millat obidasining yo'qotilishi bo'lsa, rus jallodlari tomonidan son-sanoqsiz ijod namunalarining yoqib yuborilishi mislsiz fojea bo'ldi. XX asrda nafaqat ijod namunalari, hatto, ijodkorlarning o'zlari ham otib o'ldirildilar, qamaldilar, surgun qilindilar, xullas, bir millatning

ko'tariladigan, fikr yurita oladigan har bir boshi chopib tashlandi. Muallif "Kitoblar yonib ketdi, tarix kulga, so'ng muzga aylandi" der ekan, salkam 100 yil davom etgan istibdod millatni sindirishga qattiq kurashganini, uzoq yillik tarixni unuttirishga harakat qilgani, bunga asta-sekin erisha boshlaganini esga soladi. Buyuk allomalar, dunyoga mashhur islom mulamolari, xalq qahramonlari haqidagi faktlar manbalar yo'qotildi. Biroq, oyni etak bilan yopib bo'lmaydi, deganlaridek, har qancha qattiq kurashishmasin, oyni etak bilan yopolmadilar, tarixni o'zgartirib yozishga harchand urinmasinlar, asl haqiqat yuzaga qalqib chiqaverdi:

"Bugun xitoy manbalari tilga kirarkan, Turon, Turkiston degan ohanglar – g'ururli so'zlar yangraydi. Xitoy hujjatlarining eng qadimgilarida ham Turkiston nomi uchraydi. Besh ming yillik manbalar bizga Turon hududini tavsif va ta'rif qiladi. Turon shavkatini, aslida, xitoy madaniyatidan ancha keksaroqdir. Saqlangan manbalar Turonning buyukligiga tan beradi. "Tarix o'chmaydi", deganlari ham shudir-da!" [Jovliyev. 2022, 146].

O'rta Osiyoning xonliklarga bo'linishi va uchchala xonlikning oxirgi paytlaridagi cho'kish, xonlar, amirlarning o'z maishatidan boshqa narsalarni ko'rmay qolishi bir musibat bo'lgan bo'lsa, rus istilosi shuncha musibatning ustiga tushgan toshdek millatning yanada cho'kishiga sabab bo'ldi:

"Jilovdoshim, xonliklarga bo'ldilar, bo'lindik, bosib kelishdi, bosildik... O'g'lonlar o'ligi dushmanga ko'rpacha bo'ldi... Alp Er To'nga, Ulug' Turonning uzun bo'y, keng yelkali yigitlari ustiga chiqib peshob to'kdilar, biz esa notovon bir-birimizni kuzatdik...

Turkistonning eshiklari oltindan edi, amirlar uni qo'porib, tuyalarga joylab qochib ketdi. Bedarvoza qoldi, Turkiston! Ammo bilmadilar, jilovdoshim, vatansiz o'lish, ikki marta o'lish ekanligini.... Bilmadilar, bilmaydilar, jilovdoshim, bilmaydilar..." [Jovliyev. 2022, 146].

Amir Olimxon va Xudoyorxonlar haqida ularning do'ppi tor kelganda qochib Afg'onistonga o'tib ketganlari va u yerda xor-zorlikda umrining so'nggi kunlarini o'tkazgani haqida ma'lumotlar bor. Xonlar va amirlarning rus istilosi paytida juda ko'p miqdorda oltin va qimmatbaho ashyolarni chet ellarga tashib ketganlari biroq bu boyliklar o'zlariga buyurmadigina emas, umrining oxirlaridagi xorlik kunlarida hatto kuniga ham yaramagani sir emas. Shu ma'noda, Vatanni sevish, unga sodiq qolish har kimning ham qo'lidan kelavermasligini ta'kidlash zarur.

Muallif hikoyalarida nafaqat Vatan o'tmishi, yurt tarixi bilan

bog'liq tasvirlar, balki yurtning buguni bilan ham aloqador ta'sirli, zavorli o'rinlar yoritilganki, bu kitobxonni o'yg'a tolishga, fikr yuritishga majbur qiladi. Uning "Ikki yosh uchrashuvi" hikoyasi barchamiz bugun duch kelayotgan muammolar, og'ir savollarni ko'ndalang qo'yadi.

Hikoyada turmush qurish maqsadida bo'lgan ikki yosh uchrashadilar va ana uchrashuvning o'zidayoq asarning butun mohiyati namoyan bo'ladi. Hikoyaning tuguni ham, yechimi ham, kulminatsiyasi ham faqat bitti makon va zamonda yuz beradi. Yoshlar uchrashib, gaplashib o'tirish uchun "Laylo" kafesini tanlagan bo'ladilar. Kafe makon sifatida hikoyaning barcha maqsad va g'oyalarga to'la javob bergan. Ayni paytda tahminan 30 daqiqa davom etgan suhbat jarayonida barcha masala oydinlashadi. Yigit va qiz dastlab kafega kirib o'tirganlarida qiz kafening sovuqligidan aziyat chekadi. Hatto ko'cha bu yerdan issiq edi, degan tassurotni paydo qiladi. Hikoyani o'qish barobarida bu sovuqlikning ham bejiz tanlanmagani oydinlashadi. Chunki sovuq bugun yashayotgan butun millat uchun katta muammo edi. Zero, issiqlik ta'minoti uchun zarur bo'lgan barcha resurslar ayniqsa viloyatlarda o'ta og'ir ahvolda. Qiz suhbat boshida biroz kamgap, biroz e'tiborsizdek ko'rinadi. Ammo yigitning yaqinda ustozini bilan chet eldagi juda muhim konferentsiyaga borib kelgani, bu konferentsiya "Mahalliy sharoitda elektr manbalarini olishning nanotexnologiyalari haqida" ekanini eshitgandan keyin birdan o'zgaradi. Suhbatning shu yerigacha yigit ustunlik qilib turgan, qizdan madaniyatli, zamonaviy qiz bo'lishini talab qilib turgan bo'lsa, shu gapdan keyin qiz to'satdan jon kirganday "hujumga o'tadi".

"- Elektr energiyasi bo'yicha biron-bir yangi texnologiya olib kelinmadimi?

- Kelib o'n varaqli hisobot, slayt-shou qilganmiz! Domlam sovetning odami. Ingliz tilini bilmaydi, olmon tilini ham...Shuning uchun seminarda ham, yarmarkada ham hech nimani tushunmagan, bitta ham shartnoma tuzolmagan. Yodida qandaydir tekin sharbat ichganiyu, bir qozoq texnologiyasi bilan tanishgani qolgan, xolos. Keyin... sal oshib ketib, mehmonxonaga zo'rg'a kelgan...

- Otam o'tgan yili qazo qildi. Nimadan deb o'ylarsiz? Ko'richakdan...

- Yo'g'-ay!

- Operatsiya vaqtida tuman tibbiyot markazidagi chiroq o'chib qolgan... Mendan to'rt yosh katta akam, u hozir Namanganda, qamoqda. O'sha kuni elektr stantsiyaning navbatchisini ko'tarib

yuqori kuchlanishli simlarga otib yuborgan. Aslida, navbatchida nima ayb? U har kungi odatini takrorlagan, xolos” [Jovliyev. 2022, 146].

Bu fojealar millatning uzoq yoki yaqin o'tmishidagi gaplar emas, ming afsus. Ayni kunlarimiz, bir havodan nafas olib turib, shunday fojealarga jim qarab turgan bugungi kunlarimizning achchiq ifodasi. Muallif endigina oila qurib, kelajagini barpo etmoqchi bo'lgan yoshlar tilidan aytar ekan, balki yaqin kelajakda ham bu muammolarning bartaraf etilishiga ishonch yo'qligini eslatadi:

“ - Akamning ikkita bolasi, xotini bor edi. Yangam Rossiyada, kechasi oshxonada kosa-tovoq yuvib, kunduzlari ko'cha supurib, biron narsa topsa, lo'lilarday janjal qilib, talashib, bizga jo'natadi. Meni institutda o'qishim uchun ketadigan shartnoma pulini ham kelinoyim to'laydi”.

Qiz uzoq so'zlaydi. Uning so'zlari shu qadar o'tkir bo'ladiki, bunga hayotdan faqat huzur-halovat ko'zlayodigan yigitni bezovta qiladi. Suhbat boshida maqtanmoqchi bo'lgan, o'zining “yaxshi joyda” ishlashini, chet ellarga borib kelishini ro'kach qilib, qizning og'zini ochib qo'ymoqchi bo'lgan bo'lsa, suhbatning ikkinchi yarmidan qizning qilichday keskir so'z va nigohlaridan qochish harakatiga tushadi:

“ - Kafe sovuqroqqa o'xshaydi, rostan...Nima deysiz, balki, hozir...

- Hozir onam qishloqda yolg'iz. Birdan qarib qoldilar. Kechalari televizor ko'ray desa tok yo'q. Kelinoyim bolalariga kompyuter berib yuborgan. Uning chang bosgan ekranida esa faqat o'zlarinigina tomosha qilishmoqda [Jovliyev. 2022, 146].

Qahramonlar suhbat hikoya davomida yanada jiddiy tusga kirib boradi. Zero, ziyrak kitobxon bu yerda faqat ikki yoshninggina emas, balki butun millatning ikki toifasi o'rtasida borayotgan ayovsiz kurashni ham ilg'aydi. Xalq pullaridan cheksiz foydalanayotgan toifa o'z huzur-halovati uchun yanayam ko'proq foyda qilish payida yursa, millat va xalq manfaatlarini himoya qiluvchi toifa ularga qarshi kurashish uchun qo'llaridan kelgan qadar kurashayotgani ayon bo'ladi. Huzur-halovat va foyda ilinjidagi toifaning hamma sohada ildamlab ketayotgani, natijada o'z kasbining ustalari, fidoiylari barcha orzu-umidlaridan voz kechib, Rossiyaga mardikor bo'lib ketayotgani xalqning kun tartibidagi mavzudir, aslida:

“ - Xolam menga ham sizni ko'p xorijiy tillarni biladi degandi. Siz ko'p tilni bilishingiz mumkin, lekin xalq nima deb so'zlayot-

ganini tushunmas ekansiz?! To'g'risi, sizning o'sha ilmiy seminardan butunlay elektr muammosi hal bo'lmas, Sizning o'rningizga bironta yurtparvar inson o'sha anjumanda ishtirok etganida kichkina yangilik, yangi kashfiyot namunalaridan olib kelarmidi?! Borgan sari yangiliklar ko'payib-ko'payib, elektr muammosi hal bo'larmidi?! Eh, sizlarga shuncha pul, shuncha e'tibor hayf... [Jovliyev 2022, 146].

“shuncha pul va shuncha e'tiborning hayf”ligi aslida ko'pdan beri yuzaga chiqib turgan muammo. Biroq bu muammoning ildizi juda chuqur kirib ketgani uning yechimini topishni qiyinlashtirmoqda. Suhbatning keskinlashib ketishini kutmagan yigit, aybini tan olishni istamaydi, haqiqatning ko'zlariga tik qarashdan qo'rqadi. Bir paytlar Cho'lpon aytgan edi: “Haqiqatning ko'zlaridan qo'rqaman”.

“- Kechirasiz, siz mavzudan chiqmang. Ikkalamiz uchra-shuvdamiz... Qayerdagi gaplarni aytyapsiz. Undan ko'ra menga aytingchi? Kimnidir sevganmisiz?

- Bu qayerdagi gaplar emas! Siz yashayotgani Qarshi shahridan bor yo'g'i ikki kilometr nariga chiqsangiz har uyda osilib turgan, lekin yonmaydigan chiroqlar haqida gapiryapman! Aslida, siz qayerdagi gaplarni gapirdingiz! Menga zamonaviy kiyimlarni ildirmoqchi, qoshimni terdirishni, shlyapalarda yurishimni aytdingiz. Yo'q... Men o'zbek qiziman. Men zamonaviy qizman, lekin uyatsiz emasman [Jovliyev 2022, 146].

Butun suhbat davomida qahramonlar ruhiyatida tushkun, umidsiz, ishonchsizlik kayfiyati ustunlik qilib turadi. Zero, qiz tilga olgan muammolar oddiygina shikoyat emas edi. Qizning tilidan aytilan xitoblar, bizningcha, millat oydinlari, chinakam yurt farzandlarining murojaat va ogohlantirishini eslatadi. Hikoyadagi tushkun, umidsiz kayfiyat albatta kitob o'qiguvchiga yuqishi tayin, biroq asar so'nggida ijodkorning asl maqsadi turtib chiqadi. Bu bir vaqtlar bor-yo'g'ini, molini-yu, jonini tikib millat ravnaqi uchun kurashgan, millat bolalarini ilmi, ziyoli qilish uchun, Vatanni dunyoning eng kuchli mamlakatlaridan biriga aylantirishga kurashgan jadidlarni eslatadi:

“ - Men sizday odamlar bilan shaharda yashashdan, dunyo bo'ylab sayohat qilishdan ko'ra, qishloqning maktablarida sovgotib bo'lsa-da, hayrat-la o'qituvchisiga termilib turadigan, beg'ubor, pokiza bolakaylarga bilim berishni afzal ko'raman. Kimni sevasiz, deysizmi? Men umidlarimni, orzularimni, kasbimni, o'sha bilimga chanqoq bolakaylarni, onamni, akamni, yangamni, jiyanlarimni, sayoz bo'lsa-da tinmay oqayotgan Qashqadaryomizni sevaman. Na o'zini, na o'z kasbini, na xalqini, na uning dardini biladigan sizday

bo'lajak "olim"lar esa bunday sevgini tushunmaydi. Hech qachon tushunmaydi [Jovliyev 2022, 146].

Xulosa

Garchi ojizona bo'lsa ham millat ravnaqi uchun kurashishga bel bog'lagan, millat bolalarini o'qitishni o'z havoiiy nafsida ustun qo'ygan qiz kabi obrazlar, bizningcha, zamonamizning haqiqiy qahramonlaridir. Chunki ular o'z maqsadlari yo'lida nafaqat qiyinchilik va to'siqlarga qarshi tura olishi, kamiga yigit kabi qo'lga ilinganni yutishga, ignadek foyda uchun hamma narsaga tayyor turgan kimsalarga qarshi ham kurashishi kerak. Ko'ngilni ko'targuvchi hodisa ham ayni shu o'rinda yuzaga chiqadi. Hamma davrda millatning hamisha o'z oydinlari, to'g'ri yo'ldagi olimlari, ziyolilari borligi, ular tufayli yurt osoyishta, bolalar maktablarda bilim olayotgani, muallif tomonidan obrazli ifodlangan.

Umuman olganda, Javlon Jovliyev mustaqillik davri adabiyotida o'z o'rniga ega ijodkor sifatida hikoyachilikda ham muvaffaqiyatlarga erishdi, deya olamiz. Muallifning biz yuqorida ko'rib o'tgan hikoyalarida Vatan, millat, Ona yurt mavzusi yetakchi o'rinda bo'lib, ta'sirli ifodalar, ruhiy tasvirlarga boyligi, syujetlarning xilma-xilligi asarlarning esda qolarli bo'lishini ta'minlagan. Muallif hikoyalarida Vatan konsepsiyasi bir tizim sifatida o'zining yaqqol ifodasini topgan.

Adabiyotlar

- Jovliyev J. 2022. "Onam va koinot. Hikoyalar. Toshkent, "Anorbooks".
- Oripov Abdulla. Meni olib keting o'z diyorimga. Ziyouz.com.
- Quronov D. 2018. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. Toshkent, Akademnashr.
- Qomus. 2023. Info. Onlayn ensiklopediya.
- Ulug'ov A. 2018. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matba ijodiy uyi.
- Бобур Заҳириддин Муҳаммад. 2015. Бобурнома. Тошкент, "Янги аспр авлоди".
- Фурқат. 2009. Муҳаббат йўлида. Тошкент, "Янги аспр авлоди".
- Худайбердиев Акрам Акбарович. Интерпретация концепции родины в новой узбекской поэзии XX века.
- Жабборов, Нурбои. (2015). Адабиёт ва миллий маънавият. Т.: Маънавият.
- Ulug'ov, A. (2021). Stories of khayriddin sultanov. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 11(12), 295-305.
- Rasulova, U. Y. (2021). The pride of the nation. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(3), 1685-1688.

Rasulova, U. (2020, December). THE EXPRESSION OF DIVINE LOVE IN CURRENT STORIES. In Конференции.

THE CONCEPT OF HOMELAND IN STORIES (FROM THE CREATION OF YOUNG WRITERS OF THE INDEPENDENCE PERIOD: AS AN EXAMPLE OF JAV- LON JOVLIYEV'S STORIES)

Ruxsora Tulabayeva¹

Abstract

The creators of the period of independence create with a free mind and a broad worldview, in which national-cultural and universal concepts find their expression.

It is appropriate to recognize Javlon Jovliev among the young artists during the period of independence. After all, his stories gained a special place and position in the story telling of the independence period. Javlon Jovliev was considered to be one of the first writers of his age to try the novel genre. His novel "Don't be afraid" became one of the most popular youth novels. Javlon Jovliev has achieved some success not only in novels, but also in storytelling, making extensive use of the possibilities of this genre. His stories such as "Letters to Stalin", "Mustabid's Insects", "Ayol" were published on the pages of the periodical press, and in 2022, a collection called "Mother and the Universe" was published, which included many stories. In the stories of Javlon Jovliev, the psyche of the heroes, the mental image, the inner world of the characters have been deeply expressed. Especially in the stories "Elbek", "Blue, White and Spotted Pigeons", "Ayol", "My Mother and the Universe" the female spirit and the spiritual image of the Uzbek mother are presented extremely impressively. Although each of these stories has a different plot, they have commonalities due to the image of the psyche, the tragic image of the female psyche.

Key words: *writer, writer, story, story telling of the period of independence, theme, idea, Motherland, motherland, people, spirit of heroes, concept, system, expression, nation, compatriot, freedom, Turkestan.*

¹ *Tulabayeva Ruxsora* – doctor of philosophy (PhD) in philology, associate professor, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-mail: rtulaboyeva@navoiy-uni-uz; rtolaboy@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-7013-400X

For citation: Tulabayeva, R. 2024. "The Concept of Homeland in Stories (From the Creation of Young Writers of the Independence Period: As an Example of Javlon Jovliyev's Stories)". *Uzbekistan: Language and Culture*. 2(2): 99-116.

References

- Jovliyev J. 2022. "Onam va koinot. Hikoyalar. Toshkent, "Anorbooks".
- Oripov Abdulla. Meni olib keting o'z diyorimga. Ziyouz.com.
- Quronov D. 2018. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. Toshkent, Akademnashr.
- Qomus. 2023. Info. Onlayn ensiklopediya.
- Ulug'ov A. 2018. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matba ijodiy uyi.
- Bobur Zahiriddin Muhammad. 2015. Boburnoma. Toshkent, "Yangi asr avlodi".
- Furqat. 2009. Muhabbat yo'lida. Toshkent, "Yangi asr avlodi".
- Xudayberdiyev Akram Akbarovich. Interpretatsiya konsepsii rodiny v novoy uzbekskoy poezii XX veka.
- Жабборов, Нурбои. (2015). Адабиёт ва миллий маънавият. Т.: Маънавият.
- Ulug'ov, A. (2021). Stories of khayriddin sultanov. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 11(12), 295-305.
- Rasulova, U. Y. (2021). The pride of the nation. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(3), 1685-1688.
- Rasulova, U. (2020, December). THE EXPRESSION OF DIVINE LOVE IN CURRENT STORIES. In Конференции.